

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025 noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 127 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH	48
Xodjimaton Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиев Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudjetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich	



AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI

Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: xulugbek1984@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada auditorlik faoliyatida professional mulohazaning shakllanish jarayoni hamda uning auditorlik xulosalarining ishonchliligi va sifatini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda professional mulohaza tushunchasining nazariy asoslari, xalqaro audit standartlaridagi (ISA 200, ISA 320, ISA 701) mazmuni va amaliy qo'llanish mexanizmlari yoritilgan. Auditorlik qarorlarini shakllantirishda mustaqillik, skeptisizm va axloqiy tamoyillarga rioya etishning ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan.

Shuningdek, maqolada auditorlik hisobotlarining ishonchliligini baholash uchun indikatorlar tizimi taklif etilib, "Axborot sifati indeksi (ASI)" modeli asosida auditorlik xulosasining asoslanganlik darajasini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, auditorning professional mulohazasi faqat subyektiv fikr emas, balki tajriba, tahliliy salohiyat va etik me'yorlarga tayanadigan tizimli yondashuv bo'lib, u audit natijalarining ishonchliligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: auditorlik xulosasi, professional mulohaza, axborot ishonchliligi, audit sifati, skeptisizm, mustaqillik, xalqaro audit standartlari, axloqiy tamoyillar, axborot sifati indeksi, sifat nazorati.

Abstract. This article analyzes the process of forming professional judgment in auditing and its role in ensuring the reliability and quality of audit conclusions. The study explores the theoretical foundations of professional judgment, its interpretation within international auditing standards (ISA 200, ISA 320, ISA 701), and the mechanisms of its practical application. The importance of independence, professional skepticism, and adherence to ethical principles in forming audit decisions is substantiated.

The article also proposes a system of indicators for assessing the reliability of audit reports and develops a methodology for determining the degree of validity of audit conclusions using the "Information Quality Index (ASI)" model. The results demonstrate that the auditor's professional judgment is not merely a subjective opinion but a systematic approach grounded in experience, analytical competence, and ethical standards, playing a crucial role in enhancing the credibility of audit outcomes.

Keywords: audit opinion, professional judgment, information reliability, audit quality, skepticism, independence, international auditing standards, ethical principles, information quality index, quality control.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс формирования профессионального суждения в аудите, а также его роль в обеспечении надежности и качества аудиторских заключений. В исследовании рассматриваются теоретические основы понятия профессионального суждения, его содержание в международных стандартах аудита (МСА 200, МСА 320, МСА 701) и механизмы практического применения. Обоснована важность независимости, профессионального скептицизма и соблюдения этических принципов при формировании аудиторских решений.



Кроме того, в статье предложена система показателей для оценки надежности аудиторских заключений и разработана методика определения уровня их обоснованности с использованием модели «Индекс качества информации (ASI)». Результаты исследования показывают, что профессиональное суждение аудитора представляет собой не просто субъективное мнение, а системный подход, основанный на опыте, аналитических способностях и этических стандартах, что играет ключевую роль в повышении достоверности результатов аудита.

Ключевые слова: аудиторское заключение, профессиональное суждение, надежность информации, качество аудита, скептицизм, независимость, международные стандарты аудита, этические принципы, индекс качества информации, контроль качества.

KIRISH

Professional fikr auditorlik faoliyatining nazariy asoslarida dastlab zarurat sifatida shakllangan bo'lib, u auditorlik jarayonida yuzaga keladigan noaniqliklarni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, standartlar va qonunlar barcha audit holatlarini bir xil tarzda tartibga sola olmaydi. Ularning qamrovi cheklanganligi va barcha holatlar uchun yagona yechimni taklif eta olmasligi sababli, auditor ko'plab vaziyatlarda mustaqil ravishda professional fikr bildirish zaruratiga duch keladi.

Aynan ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, "professional mulohaza" tushunchasi shakllangan. U auditorning kasbiy tajribasi, bilimlari va tahliliy salohiyatiga asoslangan holda, murakkab va standartlar bilan to'liq qamrab olinmagan holatlarni baholashda qo'llaniladigan ilmiy asoslangan yondashuvni ifodalaydi.

Bu borada T.V. Sinitsina o'zining ilmiy dissertatsiyasida quyidagi fikrni bildiradi: "Professional mulohaza — bu auditor tomonidan standart yechimga ega bo'lmagan professional muammoni baholash jarayonida chiqariladigan yakuniy xulosa hisoblanadi." Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, auditor professional mulohazani faqat shaxsiy qarashlariga tayanib emas, balki kasbiy bilimlar, amaliy tajriba va mantiqiy asoslangan fikrlash mezonlari asosida shakllantiradi.

Shu tarzda professional fikr auditorlik faoliyatining ajralmas elementi bo'lib, u nafaqat standartlar bilan chegaralangan nazariy talablarni to'ldiradi, balki auditorlik xulosalarining ishonchliligi, aniqligi va sifatini ta'minlashda ham muhim o'rin egallaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik faoliyatida professional mulohazaning mazmuni, chegaralari va ishonchlilik darajasi masalalari bo'yicha bir qator xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ishlari professional mulohazaning nazariy asoslari, psixologik omillari va amaliy qo'llanilish mexanizmlarini yoritib bergan.

T.V. Sinitsina (2005) o'zining ilmiy ishida auditorlik faoliyatida professional mulohazalarning nazariy asoslari va ularning chegaralarini aniqlash masalasiga e'tibor qaratgan. Muallif auditorning mustaqil fikr bildirish jarayonida normativ standartlar, axloqiy tamoyillar va amaliy tajriba o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini asoslab bergan. Sinitsina fikricha, professional mulohazalar ortida faqat shaxsiy tajriba emas, balki auditorning kasbiy mas'uliyati, axloqiy ong darajasi va analitik salohiyati ham yotadi. Uning ilmiy qarashlari auditorlik qarorlarining subyektiv ta'sirlardan holi bo'lishini ta'minlash maqsadida "chegaralar nazariyasi"ni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

B.T. Hasan (2017) o'z tadqiqotida auditorlarning professional mulohazalariga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, auditorning jinsi, madaniy muhit va ijtimoiy qadriyatlari professional fikrlash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, turli madaniy kontekstlarda auditorlik etikasi va skeptisizm darajasining farqlanishi audit natijalarining izchilligiga ta'sir qilishi mumkinligi aniqlangan. Hasan tomonidan ishlab chiqilgan model auditorlik mulohazalarining xolisligini oshirishda madaniyatlararo tayyorgarlik va professional treninglarning ahamiyatini asoslab beradi.

Y. Cao (2018) o'z ilmiy ishida auditorlik hisobotidagi rahbar auditor imzosining professional mulohazaning ishonchlilik darajasiga ta'sirini empirik jihatdan o'rgangan. Tadqiqot Xitoydagi 150 ta auditorlik firmasi ma'lumotlari asosida olib borilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, auditorlik hisobotida rahbar imzosi mavjud bo'lgan holatlarda investorlar auditorlik xulosasiga yuqori darajada ishonch bildirgan. Muallif bu holatni "javobgarlik signali" deb atab, professional mulohazaning ishonchliligi auditorning shaxsiy javobgarlik hissi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, auditorning professional mulohazasi ko'p omilli hodisa bo'lib, u normativ, psixologik, axloqiy va madaniy asoslar bilan chambarchas bog'langan. Shu sababli O'zbekiston sharoitida auditorlarning professional mulohazalarini baholashda nafaqat texnik standartlar, balki insoniy, axloqiy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi auditorlik faoliyatida professional mulohazani o'rganish, uning ishonchlilik darajasini baholash hamda xalqaro tajribani milliy amaliyotga tatbiq etish tamoyillariga asoslangan. Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

- Tizimli tahlil va sintez usuli – professional mulohazaning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini va tizimlilikini o'rganish maqsadida qo'llanildi.
- Qiyosiy tahlil usuli – xalqaro amaliyot (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya) va O'zbekiston auditorlik tajribasi o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni aniqlash uchun ishlatildi.
- Ekspert baholash usuli – tajribali auditorlar, mutaxassislar va professional birlashmalar vakillari fikrlari asosida auditorlik xulosalarining ishonchlilik mezonlari ishlab chiqildi.
- Kontent-tahlil usuli – auditorlik hisobotlarida professional mulohazalarning ifodalanish darajasi va ularning sifat ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilish uchun qo'llanildi.
- Induksiya va deduksiya usullari – nazariy qarashlardan amaliy natijalarga o'tish hamda empirik kuzatuvlar asosida umimlashtirilgan ilmiy xulosalar chiqarish maqsadida qo'llanildi.

Ushbu metodlar uyg'unligi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi hamda professional mulohazaning auditorlik sifatini oshirishdagi rolini aniqlash imkonini berdi. Natijada, tadqiqot O'zbekiston auditorlik tizimida professional mulohaza madaniyatini rivojlantirish, baholash va takomillashtirishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqish uchun metodik zamin yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Professional fikr shakllanishi nafaqat standartlarning yetarli bo'lmagan holatlarda yuzaga chiqadi, balki buxgalteriya axborotining murakkabligi, moliyaviy ko'rsatkichlarning ehtimollikka asoslanganligi va ayrim hollarda subyektiv baholash zarurati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Masalan, aktivlarning qadrsizlanishini aniqlash, ehtimoliy majburiyatlarni baholash yoki zaxiralarni shakllantirish kabi masalalarda qat'iy hisoblash formulalaridan tashqari, auditorning tajribasi, tahliliy salohiyati va ehtiyotkorlik tamoyiliga asoslangan yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holatlarda auditor mavjud dalillarga tayangan holda, o'zining kasbiy bilim va tajribasini namoyon etuvchi asosli mulohazalarni bildiradi.

Zamonaviy audit nazariyasida professional fikrni shakllantirishda auditorning mustaqilligi, axloqiy tamoyillarga sodiqligi hamda professional mas'uliyat darajasi alohida o'rin tutadi. Mustaqillik prinsipining mohiyati shundan iboratki, auditor hech qanday tashqi bosim yoki manfaat ta'sirisiz, haqiqat va dalillarga asoslangan holda xolis fikr bildirishi zarur. Shu bilan birga, auditor professional fikr shakllantirish jarayonida skeptik yondashuvni saqlashi, ya'ni har qanday axborotni tanqidiy baholay olishi lozim. Bu tamoyil professional mulohazani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

Xalqaro audit amaliyotida professional mulohazalarning o'rni xalqaro audit standartlari orqali aniq belgilab qo'yilgan. Ularning asosiy maqsadi — auditorlik tekshiruvining ishonchliligini ta'minlash, xulosalarning haqiqatga yaqinligini oshirish va foydalanuvchilar uchun dolzarb axborot manbaini yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, professional mulohaza auditorlik faoliyatining ajralmas va majburiy elementi sifatida qaraladi hamda xalqaro audit standartlarida mustahkam huquqiy asosga ega. Ayniqsa, bu jihat ISA 200 — "Auditning umumiy maqsadlari va auditorning unga erishishdagi mas'uliyati" standartida yaqqol ifodalanagan.

Mazkur standarta muvofiq, auditor har qanday vaziyatda auditni "kasbiy shubha" va "professional mulohaza" asosida amalga oshirishi shart. ISA 200.13(f) bandida "professional mulohaza" quyidagicha ta'riflanadi: "Auditorning tajriba, bilim va axloqiy mezonlar asosida, konkret vaziyatni baholashda mustaqil fikr bildirish jarayoni." Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, professional fikr — bu auditorning kasbiy bilim, tajriba va mas'uliyat asosida qabul qiladigan, dalillarga tayanadigan ilmiy asoslangan qaroridir.

T.V. Sinitsina bu masalaga quyidagicha yondashadi: "Audit jarayonida auditor axborotning yetarliligini baholaydi, risklarni tahlil qiladi va barcha qarorlarini kasbiy mulohazaga asoslangan holda chiqaradi." Ushbu yondashuv professional fikrni audit sifatining kafolati sifatida e'tirof etadi.

Shuningdek, ISA 320 — "Ahmiyatlilik auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishda qo'llanilishi" standartida professional mulohazalarning roli yanada kengroq yoritilgan. Unda auditor ahamiyatlilik mezonlarini belgilashda nafaqat raqamli chegaralarga, balki iqtisodiy mazmun, mantiq va subyektiv tahlilga asoslanishi lozimligi ta'kidlangan. Bu yondashuv orqali auditor real xavf va noaniqliklarni aniqlaydi hamda ularga zarur e'tiborni qaratadi. B.T. Hasan (2017) o'z tadqiqotida ushbu masalaga e'tibor qaratib, "Xalqaro standartlar auditorlarni faqat foizli chegaralarga emas, balki holatning iqtisodiy mohiyatiga e'tibor berishga undaydi" deya ta'kidlagan. Demak, auditor materiallikni aniqlashda nafaqat sonli ko'rsatkichlarga, balki ularning ortidagi iqtisodiy mazmun, kontekst va real vaziyatlarni tahlil etishi zarur.

Professional mulohaza yondashuvi xalqaro standartlarda nafaqat audit xulosasi shakllanishida, balki audit dalillarining etarliligini baholash, buxgalteriya hisobotlaridagi noaniqliklarni aniqlash va muhim audit masalalarini



(Key Audit Matters – KAM) ajratish bosqichlarida ham muhim o‘rin egallaydi. Masalan, ISA 701 — “Auditning muhim masalalarini aniqlash va ularni audit xulosasida bayon etish” standartida auditorning professional mulohazasi asosida KAMlar ajratilishi belgilangan. Bu yondashuv audit xulosasining foydalanuvchilar uchun yanada aniq, tushunarli va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.

Y. Cao (2018) o‘z tadqiqotida bu fikrni qo‘llab-quvvatlab shunday deydi: “Audit menejerining imzosi professional mas’uliyatni oshiradi va audit sifati bevosita yuksaladi.” Ushbu natija auditorlik xulosasining ishonchligi va foydalanuvchilar ishonchini mustahkamlashda professional javobgarlikning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Auditorlik tekshiruvlarida professional fikr va mulohazalarning sifati aniqlovchi mezonlar hamda ularni baholash indikatorlarini belgilash zamonaviy audit metodologiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Uslubiy yondashuvlar auditorning mulohazasi faqat subyektiv sezgi yoki tajribaga emas, balki tizimli, o‘lchovli va qayta tekshiriladigan asoslarga tayanishi zarurligini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, indikatorlar tizimi muhim vosita sifatida qaraladi, chunki u auditorning fikrlash aniqligi, qaror qabul qilish tezligi, axborotni tahlil etish darajasi va mustaqillik ko‘rsatkichlarini baholash imkonini beradi.

Shu asosda, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda auditor mulohazasining sifati quyidagi mezonlar orqali baholanmoqda: ehtiyotkorlik darajasi, skeptisizm kuchi, hujjatlashtirish aniqligi, xulosaning asoslanganligi, axloqiy izchillik hamda ob’ektivlik. Ushbu ko‘rsatkichlar professional mulohazaning sifati aniqlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi va audit natijalarining ishonchligini oshiradi (1-jadval).

1-jadval. Auditorlik bahosida buxgalteriya axborotining to‘liqlik va ishonchligini o‘lchovchi indikatorlar tizimi

№	Indikator nomi	Baholash mezon (0-10)	Baholash mezonining izohi	Auditor qaroriga ta’siri darajasi
1	Huquqiy dalillar darajasi	0 - hech qanday dalil yo‘q 10 - to‘liq tasdiqlovchi hujjatlar mavjud	Axborotlar normativ-huquqiy hujjatlar bilan qanchalik darajada tasdiqlanganligi	Juda yuqori
2	Axborot to‘liqligi koeffitsienti	0 - asosiy bandlar yo‘q 10 - barcha elementlar to‘liq keltirilgan	Hisobotlarda barcha kerakli buxgalteriya elementlari mavjudligi	Yuqori
3	Axborot manbalarining xilma-xilligi	0 - faqat ichki hisobotlar 10 - mustaqil tashqi manbalar bilan taqqoslangan	Axborotlar bir nechta manba orqali tekshirilganligi	O‘rta-yuqori
4	Axborotdagi nomuvofiqliklar soni	0 - juda ko‘p ziddiyat 10 - ziddiyat yo‘q	Hisobotdagi ma’lumotlar orasida tafvutlar va qarama-qarshiliklar mavjudligi	Juda yuqori
5	Dalillilik indeksi	0 - hech qanday hujjatli dalil yo‘q 10 - har bir element hujjatlar bilan isbotlangan	Har bir hisob bandining hujjatli asosga ega bo‘lish darajasi	Yuqori
6	Axborot yangiligi	0 - eski (3 yildan eski) ma’lumotlar 10 - joriy va aniqlangan ma’lumotlar	Axborotlarning aktual va real moliyaviy davrga taalluqliligi	O‘rta
7	Axborot strukturaviy muvofiqligi	0 - tasodifiy tuzilgan 10 - standartlarga mos keladigan tuzilma	Axborotlarning IFRS yoki MHS standartlariga mosligi	Yuqori
8	Shubhalilik darajasi (teskari)	10 - yuqori darajadagi shubha 0 - shubha yo‘q	Auditor tomonidan aniqlangan xavf-xatar yoki ehtimoliy noto‘g‘rilik darajasi	Juda yuqori (salbiy ta’sir)

Yuqoridagi 1-jadvalda keltirilgan indikatorlar asosida auditor hisobotda berilgan har bir ma’lumot bo‘yicha umumiy ishonchlilik darajasini aniqlashi mumkin. Masalan, 8 ta indikator bo‘yicha har bir bandga tegishli ball qo‘yilgach, auditorlik bahosining yakuniy indeksini quyidagi formula yordamida hisoblash tavsiya etiladi:

Axborot sifati indeksi (ASI)=maksimal ball $\sum$ (barcha indikatorlar ballari) $\times$ 100

Baholash natijalari quyidagicha talqin etiladi:

- ASI $\geq$ 75% – axborot ishonchli deb baholanadi;
- 50% $\leq$ ASI < 75% – axborot shartli ishonchli sifatida baholanadi;
- ASI < 50% – axborot past ishonchlilik darajasiga ega deb hisoblanadi.

Mazkur yondashuvni amaliy qo‘llashda ushbu uslubni auditorlik dasturining maxsus bo‘limiga integratsiya qilish mumkin. Natijada, hisobot tayyorlash jarayonida auditor axborotning ishonchlilik darajasini avtomatik

tarzda baholay oladi. Bu, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar uchun katta ahamiyat kasb etib, audit jarayonida risklarni aniqlashni soddalashtiradi va auditorlik vaqtini sezilarli darajada tejaydi.


Xalqaro tajribada professional mulohazalarning shakllanishi auditorning shaxsiy mas'uliyati va qarorlarining aniqligini kuchaytirish orqali nazorat qilinadi. Masalan, Yevropa Ittifoqining 2006-yilgi 8-direktivasi hamda AQShning SEC 3211-qoidasi auditorning shaxsiy ismi yoki imzosini hisobotda ko'rsatishni majburiy tartibda belgilagan. Bu talab auditorning kasbiy mas'uliyatini oshiradi hamda uning o'z mulohazalariga nisbatan yanada javobgarlik bilan yondashishini ta'minlaydi. Shu boisdan, professional mulohazalarni shakllantirishda xalqaro standartlar shunchaki tavsiyalar emas, balki qat'iy me'yor va tamoyillarni belgilab beruvchi hujjatlar sifatida qaraladi.

Auditorning professional fikri va mulohazasining shakllanish jarayonida shaxsiy omillar hamda axloqiy yondashuv muhim rol o'ynaydi. Har bir auditor o'zining tajribasi, bilim doirasi, madaniyati, axloqiy qadriyatlar va psixologik holatidan kelib chiqib, audit jarayonidagi ma'lumotlarni qabul qiladi, tahlil qiladi va ular asosida xulosa chiqaradi. Shu sababli, professional mulohaza faqat texnik bilim va standartlarga emas, balki auditorning shaxsiy yondashuvi, tajriba va fikrlash madaniyatiga ham bevosita bog'liqdir. Bu omillar auditorlarning bir xil holatga nisbatan turlicha qarashlar bildirishiga sabab bo'lishi mumkin, ammo bu jarayon auditorlik fikrlarining xilma-xilligini, ya'ni kasbiy tafakkurning boyligini aks ettiradi.

Professional mulohaza orqali auditor murakkab, noaniq yoki ehtimollikka asoslangan holatlarni o'z tajribasi, bilimlari va axloqiy mezonlari asosida tahlil qiladi hamda foydalanuvchilarga ishonchli va asosli xulosalarni taqdim etadi. Bunday yondashuv, bir tomondan, auditning huquqiy va texnik mezonlarini, boshqa tomondan esa auditorning shaxsiy mas'uliyati va kasbiy qadriyatlarini uyg'unlashtiradi. Natijada, auditorlik xulosalari nafaqat shaklan, balki mazmunan ham ishonchligi bilan ajralib turadi.

Auditorlik faoliyatida professional mulohaza axborotdagi xatoliklar, noto'g'ri aks ettirishlar yoki moliyaviy ko'rsatkichlardagi noaniqliklarni aniqlash, ularni baholash va zarur hollarda auditorlik hisobotida ochiqlash imkonini beradi. Bu jarayon auditorning chuqur tahliliy salohiyati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy mas'uliyati bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, auditor zaxiralar shakllanishi yoki aktivlarning qadsizlanishi kabi masalalarda professional fikr bildirar ekan, ehtiyotkorlik tamoyiliga rioya qilgan holda qaror qabul qilishi natijasida buxgalteriya hisobotining ishonchligi sezilarli darajada oshadi.

Shu sababli, xalqaro amaliyotda ham professional mulohaza axborot sifatining kafolati sifatida qaraladi. Xalqaro audit standartlarida bu yondashuv auditorning mustaqilligi, mas'uliyati va etik me'yorlarga sodiqligini ta'minlashning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi (1-rasm).



1-rasm. Professional mulohaza orqali axborot ishonchligini mustahkamlashning amaliy jihatlari

Ushbu 1-rasmda ko'rish mumkinki, professional mulohaza audit jarayonining barcha bosqichlarida bevosita ishtirok etadi va har bir bosqichda axborot sifatining ma'lum jihatini mustahkamlaydi. Bu esa audit



jarayonining umumiy ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, auditorlar doimiy ravishda nafaqat texnik tayyorgarlik, balki axloqiy-psixologik tayyorgarlikni ham rivojlantirib borishlari zarur. Xalqaro amaliyotda ham auditorlik tashkilotlari professional mulohazani rivojlantirish uchun o'quv dasturlari, ichki nazorat tizimlari va mentorlik tizimlarini yo'lga qo'ygan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, auditorlik xulosalarining ishonchligi va sifat darajasi auditorning professional mulohazasining asoslilik darajasiga bevosita bog'liqdir. Professional mulohaza auditorlik faoliyatining markaziy elementi bo'lib, u nafaqat standartlar va qonunchilik talablarini amalda qo'llashni, balki auditorning tajribasi, bilimlari, axloqiy qadriyatlari hamda skeptik fikrlash qobiliyatini o'zida mujassam etadi. Auditorlik amaliyotida professional mulohazalarning asoslilikini ta'minlash, avvalo, auditorning subyektiv fikrini dalillarga, tahliliy yondashuvga va hujjatlashtirilgan isbotlarga tayantirishni anglatadi. Shu ma'noda, auditorlik xulosasi faqat shakl jihatidan emas, balki mazmun jihatidan ham ishonchli, shaffof va mantiqan asoslangan bo'lishi lozim. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro amaliyotda, xususan AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliya tajribasida professional mulohazalarni rivojlantirishda auditorlarning etik va psixologik tayyorgarligini kuchaytirish, mustaqillik va skeptisizmni baholovchi mezonlarni aniqlash hamda auditorlik dalillarining sifati va hajmini baholash uchun tizimli yondashuvni joriy etish muhim o'rin tutadi. O'zbekiston auditorlik tizimida ham professional mulohazalarni baholashning aniq metodikasini ishlab chiqish, "auditorlik xulosasining ishonchlilik indeksi" kabi zamonaviy baholash mezonlarini joriy etish hamda auditorlarning malakasini muntazam oshirish orqali audit sifatini xalqaro talablar darajasiga yaqinlashtirish mumkin. Umuman olganda, auditorning professional mulohazasi oddiy subyektiv fikr emas, balki faktlarga, tahlillarga va axloqiy mas'uliyatga asoslangan kasbiy qaror bo'lib, u auditorlik xulosasining ishonchligini, aniqligini va foydalanuvchilar ishonchini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Agostinho, M. A. "Percepção dos auditores independentes sobre a contribuição das ferramentas estatísticas na redução do risco de auditoria." – 2014. – 185 bet.
2. Cao, Y. "Does the Signature of the Audit Manager on the Audit Report Matter? Evidence from China." Master of Research Thesis. – Sydney: Macquarie University, 2018. – 101 bet.
3. Hasan, B. T. "Impact of Gender and Culture on Audit Judgements." Master of Research Thesis. – Sydney: Macquarie University, 2017. – 89 bet.
4. Soh, D. S. B. "Internal Audit's Involvement in Environmental, Social and Governance Assurance and Consulting." Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy. – Sydney: Macquarie University, 2017. – 312 bet.
5. Valadares, J. P. A. "Relação entre Audit Report Lag e Gerenciamento de Resultados." Dissertação (Mestrado em Ciências Contábeis). Universidade Federal de Minas Gerais, Centro de Pós-Graduação e Pesquisas em Controladoria e Contabilidade. – Belo Horizonte, 2019. – 87 bet.
6. Казанникова, Е. В. «Профессиональное суждение бухгалтера в условиях стандартизации учета.» Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 20 с.
7. Синицына, Т. В. «Границы профессионального суждения в аудите.» Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук: 08.00.12. – Новосибирск: НГУЭУ, 2005. – 125 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100